

DUNYO BOLALAR ADABIYOTI

LYUIS KERROLL

Alisa

MO'JIZALAR MAMLAKATIDA



821.111-3	1021/424-2
K 38	Kerroll, L.
Alisa Mo'jizalar	
mamlakatida	
T-2020-726-46000	

DUNYO BOLALAR ADABIYOTI



LYUIS KERROLL

Alisha

MO'JIZALAR MAMLAKATIDA



YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2020

UO'K: 821.111-3

KBK: 84(4Ingl)

K – 38

Kerroll, Lyuis

Alisa Mo'jizalar mamlakatida: bolalar uchun ertak. Lyuis Kerroll/ Mohira Otaboyeva tarjimasi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. — 72 bet.

ISBN 978-9943-20-761-5

Atoqli ingliz adibi Lyuis Kerroll (1832–1898) o'zining ikki ertagi — «Alisa Ko'zguorti o'lkasida» va «Alisa Mo'jizalar mamlakatida» bilan jahon adabiyoti tarixida o'ziga xos iz qoldirdi. Kutilmagan g'aroyib sarguzashtlarni boshidan kechirgan Alisa, mana, qariyb bir yarim asrdan beri dunyo bolalarining sevimli qahramoniga aylangan. Lyuis Kerrollning har ikkala ertagi allaqachon jahon bolalar adabiyotining mumtoz namunalari qatoridan joy olgan.

Quyida Mohira Otaboyeva tomonidan Moskvadagi Ayris-Press nashriyotida chop etilgan «Alisa Mo'jizalar mamlakatida» ertak-qissasining soddalashtirilgan nashri (Lewis Carroll. Alice in Wonderland, M., 2002) tarjimasi havola etilmoqda.

Alisaning bir-biridan g'aroyib fe'li jonzotlarga to'la mamlakatga qilgan sayohatida siz ham hamroh bo'ling!

UO'K: 821.111-3

KBK: 84(4Ingl)

**Ingliz tilidan
Mohira OTABOYEVA
tarjimasi**

ISBN 978-9943-20-761-5

© Lyuis Kerroll. «Alisa Mo'jizalar mamlakatida» ertak-qissasi, 2020-yil.

Zangiota AKM


Inventar/№ 22.11.2020

ERTAKCHINING G'AROYIB OLAMI

Kun bo'yi opasining rasmsiz kitob o'qishidan zerikib, oldidan o'tgan Oq Quyon, quyon bo'lganda ham binoyidek so'zlab va dam-dabam soatiga qaraydigan g'aroyib quyon ortidan ketib mo'jizalar olamiga tushgan qizaloq haqidagi ertakni bilmaydigan bola topilmasa kerak. Shu qizcha sarguzashtlari aks etgan Lyuis Kerrollning «Alisa Mo'jizalar mamlakatida» ertagi asosida Gollivud ijodkorlari tomonidan yaratilgan mult-film yoki kinofilmni ko'rganlar ham talaygina, albatta. Taniqli ingliz adibi Lyuis Kerrollning Alisa ismli qizchaning sarguzashtlariga bag'ishlangan jahonga mashhur bu ertagi hamon kichikintoylar mutolaasida va allaqachon kattalar qalbidan ham joy olgan. Asar XIX asrda yozilgan bo'lsa ham, uning atrofidagi adabiyotshunoslarning bahs-munozarasi hamon tinmayotir, qolaversa, G'arb kinoijodkorlari, multiplikatsiya ustalari Kerroll ertaklariga qayta-qayta murojaat qilishmoqda.

1832-yili Angliyaning Cheshir grafligida ko'p farzandli oilada dunyoga kelgan adibning asl ismi Charlz Lyutvij Doj-son bo'lib, u ilk bilimlarni ziyoli ota-onasidan oladi. Avvaliga Richmonddagi maktabda, keyinchalik Oksfordda o'qigach, bo'lajak adib umrini matematika va mantiqqa bag'ishlab, professor darajasini olib, umrining oxirigacha talabalarga saboq beradi. Shu o'rinda rus tadqiqotchisi N.Demurovaning Kerroll shaxsiyati haqidagi quyidagi fikrlari e'tiborga molik: «Yozuvchi tarjimaiy holida tadqiqotchilarning e'tiborini tortadigan drama-





tik hodisa deyarli uchramaydi. Ammo mana shu odatiy, oddiy hayotiy faktlar bilan uning biografiyasi tig'iz, to'lib-toshgan» Darhaqiqat, bir qarashda professor Charlzning hayoti bir tekisda, hech bir sarguzushtlarsiz kechgandek. Biroq uning bolalar oldida tund muallimdan dilkash ertakchiga aylanishi adib ijodi va shaxsiyatiga qiziqishni oshiraveradi.

«Endi boshqa iloj yo'q. Lyuis Kerrollni bitta odamga aylantirish vaqti keldi. Uning xarakteri va ijodini to'liq qamrab olishimiz kerak, lekin biz yana mag'lubiyatga uchraymiz. Lyuis Kerrollga yaxshiroq qarasak, oksfordlik ruhoniyni ko'ramiz, lekin diqqat bilan nazar solsak, sehgarni payqaymiz. Uning kitoblari ham shunday ikkiga bo'linib ketadi», deb yozgandi taniqli yozuvchi va adabiyotshunos Virjiniya Vulf adib hayoti va ijodiga bag'ishlangan essesda. Bu esseda muallif xuddi ikki xil odam haqida so'z yuritayotgandek taassurot qoldiradi. Ulardan biri Oksfordning hurmatga sazovor olimi, oqko'ngil, talabchan, mag'rur, bir maromda, tartib bilan yashaydigan Charlz Lyutvij Dojson. U mantiq va matematikaga doir talay tadqiqotlar olib borgan, shu bilan birga matbuotda ijtimoiy-siyosiy hayotdagi muammolarni aks ettirgan o'tkir pamflet va maqolalari ham e'lon qilingan. Ikkinchisi esa unga sira o'xshamaydi. Uning ermagi, do'stlari — bolalar, ularning davrasida adib chin dildan yayraydi. Va, hatto, boladek o'ylay oladi. Adib muvaffaqiyat qozongan fotografiya ham ayni shu kichik do'stlari bilan bog'liq. Fotografiya san'atida havaskorlikdan professionallik darajasiga ko'tarila olgani e'tirof etilgan adibni suratlashga qiziqtirganlar ham uning jajji do'stlari edi. Tadqiqotlar uning kichikintoylarga qattiq bog'langanini bolalar va yulxa-singillari bilan



ko'p vaqt o'tkazgani, ularga g'amxo'rlik qilib onasiga yordam bergani bilan izohlashadi. Har ne bo'lganda ham aynan bolalar sabab jahon adabiyoti ikki nodir asar bilan boyigani haqiqat.

Odatda kitobxon biror asarni qo'lga olar ekan, undan ma'no, tizimli syujet, voqea-hodisalarning uzviy bog'liqligi-yu, obrazlarning mutanosibligini kutadi. Biroq Kerroll ertaklarini o'qimoqchi bo'lgan kitobxonni ogoh etaylikki, bu asarlar zinhor siz-u bizga tanish, qulog'imiz o'rgangan cho'pchaklarga o'xshamaydi. Ehtimol, ularni o'qiyotib xayolingizga kelgan ilk fikr «bema'nilik» bo'lar. Ammo dunyo adabiyotida shunday asarlar borki, ularda bema'nilik ustiga katta ma'no yuklanadi. Ya'ni ularda qo'llanilgan janr — «nonsens» (lotin tilida «non» — yo'q, «sens» — ma'no, degani)ning o'z «sens»i, ma'nosi bor.

Angliya adabiyotida asos solingan janr deb hisoblanuvchi «nonsens» adabiy hodisasi va bu yo'sinda yozilgan asarlar yuzaki o'qiganda telba-teskaridek tuyulsa-da, aslida zamirida mulohazaga undovchi tagma'no mujassam. Bunday asarlarda voqealar ketma-ketligini oldindan taxmin qilish imkonsiz, ular bir qarashda aqlga to'g'ri kelmaydigan mantiq o'yini va hech qanday cheklovsiz erkin fikr- xayollar ustiga qurilgan. Bu janr haqida so'z yuritganda, har qanday mas'uliyatdan xoli, hayotiy tajriba yukidan mustasno, agar kattalar xalal bermasa, har kunini bayram qiladigan shod-xurram bolalar ko'z oldingizga keladi. Xalq og'zaki ijodining o'lmas namunalari bo'lmish afsona va dostonlardagi mo'jizakor olam qayta yaratiladigan bunday asarlar asli folklordan «suv ichadi». Folklor namunalarining bari nonsensga yaqin, degan fikrdan yiroqmiz, albatta.



Nonsens janridagi g'ayrioddiy voqealar zahirida ajoyibot va sir-sinoatlar emas, mantiq, til va so'z o'yini yotadi. Bunday asarlarning xalq ijodi namunalaridan farqi ham shunda.

Kerrollning «Alisa Mo'jizalar mamlakatida» ertagida voqea-hodisalar aslida tushda kechsa-da, asar avvalida buni payqamaysiz. Hammasi Alisaning Oq Quyondan uning uyiga sakrashidan boshlanadi. Alisa g'aroyib diyorda bir-biridan g'alati, telbanamo qahramonlarga duch keladi. Ularning ayrimlari, masalan, Sichqon, Billi ismli Kaltakesak, Quyondan, Ipak Qurti kabi jonivorlar gapirishni, yig'lashni, baqirishni, hatto aql o'rgatishni ham bilishadi. Mo'jizalar mamlakatida mo'jiza dahl qilmaydigan jonzot yo'q. Alisa ham mehmon bo'lsa-da, bundan mustasno emas. Shu bois ertak davomida u g'ayrioddiy holatlarni boshidan o'tkazadi: dam kichrayib, dam kattaradi, bir safar o'zining ko'z yoshlariga g'arq bo'lishiga oz qoladi. Qartalar Qirol va Qirolchasidan tortib, ularning butun boshli qo'shinini ko'radi. Qirolicha Toppon suhbatiga mu-sharraf bo'ladi. Hatto umrida birinchi marta sudda qatnashadi. Alisa bu sehrli olamda ko'p g'aroyibotlarni ko'rsa-da, o'zligini unutmaydi. Haqqo'yligi-yu, qiziquvchanligi bois dakki yeydi, biroq o'z fikridan qaytmaydi.

Ertak odatdagidek, Alisaning tugal baxtga yoki bitmas-tuganmas boylikka ega bo'lishi bilan yakun topmaydi, u uyqudan uyg'onib ketadi, xolos. Asar voqealari, qahramonlari g'ayrioddiy bo'lsa-da, ularning gap-so'zlari, xatti-harakatidan saboq chiqarish, ibrat olish, muayyan xulosaga kelish mumkin. Biroq Kerroll kitobxonga bu oq, bu qora, deb ko'rsatmaydi, pand-nasihatl qilmaydi. Adib personajlar orqali fazilat va illat-



larni jonlantiradi, xolos. Masalan, Oq Quyon orqali qo'rqqulikni, Gersoginya obrazida ikkiyuzlamachilikni, Sichqonda manmanlikni, Qirolichada esa xudbinlikni fosh qiladi. Xulosa chiqarishni esa kitobxonga qoldiradi.

Lyuys Kerroll o'z kundaligida ushbu ertakni Alisa ismli jajji do'sti iltimosi bilan 1862-yilda yoza boshlaganini qayd etadi. Asar avvaliga noodatiyligi sabab adabiyotshunoslar tanqidiga uchrasa-da, 1872-yil uning mantiqiy davomi bo'lmish «Alisa Ko'zgu orti o'lkasida» chop etilgach, muallifga tengsiz shuhrat keltiradi. Bu ertaklar adib tirikligidayoq qo'lma-qo'l bo'ladi. «Alisa Mo'jizalar mamlakatida» ertagi chop etilganidan ko'p o'tmay nemis va fransuz, 1872–1874-yillari italyan, golland, 1879-yili rus tiliga tarjima qilinadi. 1886-yili Mavlud ayyomida Londondagi Uels shahzodasi teatrida «Alisa Mo'jizalar mamlakatida» ertagi sahnalashtiriladi. Bu ikki asar hali hamon turli tillariga o'girilmoqda, ular orasida hatto somali singari noyob tillar ham borki, bu Kerroll ertaklari har xil millatga mansub bolalarning sevimli asariga aylanganini ko'rsatadi.

Men «Alisa Mo'jizalar mamlakatida» ertagini ilk bor multfilm shaklida tomosha qilib, katta taassurot olganman. Keyinchalik bu asarning nisbatan qisqartirilgan, soddalashtirilgan nashrini topib, uni ingliz tilidan baholi qudrat tarjima qildim. Tarjima nafaqat o'zbek bolajonini, balki uning ota-onasini ham Kerrollning g'aroyib olamiga oshno qilishidan umidvormiz.

Tarjimondan



QUYON UYASIDA

Alisa o'tloqda o'tirgandi, yonida opasi kitob o'qiyotgan edi. Alisaga bu kitob yoqmasdi, chunki unda birorta ham surat yo'q edi. «Rasmsiz kitobning nima keragi bor?», o'yladi Alisa. «O'rnimdan turib, bir oz gul tersam-chi. Yo'q, havo juda issiq. Shunday uyqum kelyaptiki...»

To'satdan yonidan oq quyon chopib o'tdi. «Voy, kechik-yapman! Judayam kechikyapman!», qichqirardi u.

Gapiradigan quyon! Avvaliga Alisaga bu unchalik qiziq tuyulmadi. Lekin quyon cho'ntagidan soat chiqarib qaraganda, Alisa beixtiyor o'rnidan turdi. Keyin quyonning ortidan ergashdi. Quyon o'tloqdagi uyasiga sakradi. Alisa ham uning ketidan sakradi.

Lekin Alisa uyaning tubiga o'rmalab kirish o'rniga qulab tusha boshladi. Tushib ketaverdi, ketaverdi.

U sekin qulab tushayotgandi, shuning uchun atrofga qarashga, hatto o'ylashga ham fursat bor edi. Avval u pastga qarashga urindi va uya tubida nima borligini ko'rmoqchi bo'ldi. Ammo uya tubi qorong'i, hech narsa ko'rinmasdi. So'ngra Alisaning ko'zi uya devoridagi javonlarga tushdi. Javonlarning har yer, har yerida rasm va xaritalar ilib qo'yilgan edi. Javonlarning birida ko'za bor edi. Alisa ko'zani qo'lga olib, «murabbo» so'zini o'qidi.

Lekin ko'zada hech qanday murabbo yo'q edi. Alisa ko'zani uloqtirishni xohlamasdi. Biror kishini o'ldirib qo'yishdan qo'rqardi. Alisa hali ham qulab tushayotgan edi. Boshqa bir javon yonidan o'tayotib ko'zani unga qo'ydi.







«Ha, — o‘yladi Alisa, — bunaqa uzoq qulab tushishdan keyin daraxtdan sakrashga qo‘rqmasam ham bo‘ladi».

Alisa hanuz pastlab borardi.

— Men yerning ichidan o‘tyapmanmi? — dedi Alisa. — Yer sharining boshqa tomonida yashaydigan odamlar juda qiziq ko‘rinsa kerak. Nahotki, ular boshlari bilan yurishsa? Qayerga kelib qolganimni bilmaganim uchun ulardan muloyimlik bilan mamlakatlarning nomini so‘rayman. Shunda ular meni tentak qiz deb o‘ylashadi.

Alisa hamon qulab tushayotgan edi. Boshqa qiladigan yumushi yo‘qligidan biroz o‘tib, Alisa yana o‘ziga o‘zi gapira boshladi:

— Bechora Dina! Mensiz bugun oqshom nima qilarkin? (Dina uning mushugi edi.) Unga sut berishni unutishmasa bo‘lgani. Dina! Mening shirin mushukcham! Ming afsus, yonimda yo‘qsan. Lekin bu yerda mushuk nima ham yerdi? Bo‘m-bo‘sh havoda hech qanaqa sichqon bo‘lmasligi aniq.

Kutilmaganda qulash poyoniga yetdi, Alisa bir sakrab o‘rnidan turdi. Ko‘zi uzun yo‘lakka tushdi. Oq quyon yo‘lak bo‘ylab yugurayotgan edi.

«Shoshilish kerak», o‘yladi Alisa va quyonning ketidan yugurdi. Quyon burildi va Alisa uning: «Kechikyapman, kechikyapman», deganini eshitdi. Alisa quyondek tez chopa olmasdi. Shu orada quyon ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.»

ALISA KICHRAYIB QOLDI

Alisa yana atrofga alanglab qaradi. U turgan xona juda katta edi. Xonaning eshiklari ko'p bo'lib, Alisa ularni ochishga urindi, lekin eshiklarning hammasi qulflangandi. Alisada esa kalit yo'q edi.

«Qanday qilib bu yerdan chiqaman?», o'yladi u.

To'satdan Alisaning ko'zi uch oyoqli kichkina stolga tushdi. Stolning ustida kichkina tilla kalit turardi. Alisa kalitni olib, har bir eshikning qulfiga tiqib ko'rdi. Lekin kalit ba'zi eshiklar qulfiga kattalik qilsa, boshqalariga juda kichik kelardi. Shunda u kichik bir eshikni ko'rdi. U mitti tilla kalit bilan eshikni ochishga urindi. Bu safar eshik ochildi va Alisa qarshisida go'zal bog' ko'rindi. Bog' chiroyli gullar bilan burkangandi. Alisa boqqa kirmoqchi bo'ldi, baxtga qarshi eshik shunchalik kichik ediki, unga hatto boshi ham sig'masdi.

«Afsus, men durbinday yig'ila olmayman», o'yladi u.

Alisa kichkina eshik yonida biroz turdi-da, keyin stol tomon yurdi. U boshqa biror kalitni yoki durbinday ixchamlashish yo'li yozilgan kitobni topmoqchi edi. Bu safar stol ustidagi kichkina shisha idishga ko'zi tushdi. U shisha idishni qo'lga olib, undagi «Meni ich», degan yozuvni o'qidi. Alisa ozgina simirdi. Shisha idishdagi ichimlik shirin edi. U yana ozgina ichdi. Keyin idishni bo'shatib ichib qo'ydi:

— G'alati-ku, — dedi u. — Men durbinday kichrayib ketyapman.

U borgan sari kichrayardi. Ko'p o'tmay u mitti qizaloqqa aylandi.





«Endi kichik eshik orqali go'zal boqqa kira olaman», o'y-ladi u.

Ammo Alisa endi shu qadar mitti ediki, kalitchani olishga bo'yi yetmasdi. U polga o'tirib yig'lay boshladi.

— Yig'lamasligim kerak, yig'lamasligim kerak, — derdi u o'ziga o'zi.

Shu payt Alisa stol tagidagi qutichani ko'rib qoldi. U qutichani ochib, ichidagi juda kichik shirinlikdagi «Meni ye», degan yozuvni o'qidi.

— Men uni yeyman, — dedi Alisa. — Keyin yana o'sib, go'zal bog'ning kalitini olib, u yerga kiraman. Yoki mabodo yanayam kichraysam, eshik tagidan o'taman.



Alisa shirinlikdan bir bo'lak yedi. Hech narsa bo'lmadi. U yana yedi. Ammo hech qanday o'zgarish yuz bermadi.

«Nimaga hech narsa bo'lmayapti?», o'yladi Alisa va shirinlikni paqqos tushirdi.

KO'Z YOSHLI KO'L

— Qanday ajoyib! — qichqirdi Alisa. — Men xuddi durbinday ochilyapman. Xayr, oyoqlarim! — Uning oyoqlari deyarli ko'rinmasdi. — Oh, bechora oyoqlarim, endi kim sizlarga poyabzal kiydiradi? Men kiydirolmayman. Siz endi mendan ancha uzoqdasiz.

Shu payt uning boshi shiftga tegdi. Alisa darhol stoldan kalitni olib bog'ning eshigi tomon yugurdi.

Bechora Alisa! U eshikka sig'masdi. Alisa yerga yotib ochiq eshikdan boqqa qaradi. Boshqa nima ham qila olardi?

Keyin u yig'lay boshladi.


— Sen ahmoq qizsan! — dedi u o'ziga o'zi. — Yig'lamasliging kerak! Bas qil, deypman.

Ammo u yig'layverdi, yig'layverdi. Ko'z yoshlari polga tomib tez orada ko'l hosil bo'ldi. Qo'qqisdan uning qulog'iga qandaydir tovush chalindi. Alisa ko'z yoshlarini artib, o'sha tomonga qaradi. Yana o'sha oq quyonni ko'rdi. Quyon juda tez yugurardi. U chiroyli kiyingan, bir qo'lida oq qo'lqop, ikkinchisida katta yelpig'ich bor edi.

— O, gersoginya, gersoginya, u meni kechirmaydi! — derdi oq quyon.

Alisa xonadan chiqish uchun undan yordam so'ramoqchi bo'ldi. Oq quyon yaqinlashgach, Alisa shunday dedi:





— Janob quyon! Menga yordam bering, iltimos!

Ammo u quyonni qoʻrqitib yubordi. Quyon bir soniya qotib turdi-da, qoʻlqop va yelpigʻichni tashlab qochdi.

Alisa yelpigʻich va qoʻlqopni oldi. Xona issiq boʻlgani uchun u yelpigʻich bilan yelpindi va yana oʻziga oʻzi gapira boshladi:

— Bugun gʻalati kun boʻldi. Menga oʻzi nima boʻlyapti? Bir qarasam kattarib ketaman, bir qarasam kichrayaman. Yoki boshqa qizga aylanib qoldimmi? Alisa boʻlmasam, unda kimman? Adamanmi? (Ada Alisaning dugonasi edi.) Yoʻq, Ada emasman. Adadan koʻra koʻproq narsa bilaman. U Ada, men esa menman. Men matematikani

undan yaxshiroq bilaman. Hozir isbotlayman: to'rt karra besh o'n ikki... to'rt karra olti o'n to'rt... to'rt karra yetti... Ey, hammasi noto'g'ri. Hozir davlatlarning poytaxtlarini aytaman. London Germaniyaning poytaxti, Germaniya Angliyaning poytaxti... Yo'q, hammasi xato... Demak, men Alisa emas, Ada ekanman.

Boyaqish Alisa yana yig'lamoqchi bo'ldi. Lekin u o'ng qo'lida quyoning kichkina qo'lqopini ko'rdi.


— Gapirayotganimda qo'lqopni kiyibman, — dedi Alisa.
— Ammo qo'lqop juda kichkina edi. Men yana kichraydimmi? Alisaning oyoqlari borgan sari kichrayib borardi.

«Kichrayishimga yelpig'ich sababmikan?», o'yladi u.

Yana mitti qizchaga aylanishdan qo'rqqan Alisa yelpig'ichni tashlab yubordi.

— Qani endi bog'ga, — qichqirdi u va eshikcha tomonga yugurdi. Ammo eshik qulflangan, tilla kalitcha hamon stol ustida turardi.





— Yo‘q, endi juda ham kichrayib qoldim, kalitni ololmayman, — o‘yladi bechora qiz. — Endi nima qilaman?

To‘satdan Alisa sirpanib, bo‘ynigacha suvga cho‘kdi. U avval dengizdaman, deb o‘yladi. Ammo birdan bu o‘zining ko‘z yoshi ekani yodiga tushdi.

«Nega buncha ko‘z yosh to‘kdim-a? — o‘yladi u. — Nima qilsam ekan? Bu yerdan qanday qilib chiqaman endi?»

Shunda birdan u suvda nimanidir ko‘rib qoldi. Avvaliga timsohmikan, degan o‘yga bordi. Lekin uning sichqoncha ekani tezda angladi.

QANI MENING MUSHUGIM?

«Qanday qilib sichqon ko‘z yoshlarim ichiga tushib qoldi? — o‘yladi Alisa. — Men bilan gaplashadimi u? O‘zi bugun g‘alati kun bo‘ldi. Sichqonning gapirishiga ishonchim komil».

— Qadrli sichqonjon, aytolmaysizmi, bu ko‘ldan qanday qilib chiqsa bo‘ladi?

Sichqon Alisaga hech nima demadi.

«U ingliz tilini tushunmas ekan, — o‘yladi Alisa. — Balki u fransuz sichqonidir. Unday bo‘lsa fransuzcha gapiraman».

Ammo Alisa fransuzchada faqat bitta: «Qani mening mushugim?», degan gapni bilardi. Bu «Fransuz tili» darsligidagi birinchi jumla edi.

U sichqonga: «Qani mening mushugim?» — dedi.

Qo‘qqisdan sichqon suvdan sakrab chiqib ketdi.

«O, men ahmoqman, — o‘yladi Alisa. — Nega sichqonning oldida mushuk haqida gapirdim. Axir, sichqon mushukdan qo‘rqadi-ku».

— Muhtaram sichqon, meni kechiring, — qichqirdi Alisa.
— Sichqonlar mushuklarni yomon ko'rishi yodimdan chiqib qolibdi.

— Yodingdan chiqibdimi? — achchiqlanib gapirdi sichqon.
— Bilmaysanmi, mushuklar sichqonlarni yeyishadi-ku. Qanday qilib sichqonlar mushuklarni yoqtirishi mumkin?

— Ha, muhtaram sichqon, — dedi Alisa, — gapingiz juda ham to'g'ri. Ammo meni Dina ismli mushugim juda ham yaxshi. U ozoda va yoqimtoy. Dina sichqonlarni shunday tutardiki... O, meni kechiring, — qichqirdi Alisa, chunki sichqon juda darg'azab edi. — Bo'ldi, biz mushuklar haqida so'zlashmaymiz.

— Biz? Men emas, sen so'zlading bu haqda. Men «mushuk» degan so'zga toqat qilolmayman! — dedi sichqon.

— Siz mendan endi «mushuk» so'zini umuman eshitmay-siz, — dedi Alisa. — Siz bilan boshqa narsalar haqida suhbatlashaylik. Sizga itlar yoqadimi?





Sichqon javob bermadi. Shunda Alisa yana gap boshladi.

— Uyimiz yaqinida zo‘r it bor. Uning jigarrang uzun yunglari biram ajoyib. Agar biror narsani uloqtirsangiz u zumda keltirib beradi. U uyimizdagi kalamushlarni o‘ldirardi. O, ming bora uzr.

Ammo sichqon tez suzib undan uzoqlashdi.

— Muhtaram sichqon, — qichqirdi Alisa. — Iltimos, yonimga keling. Mushuk va itlarni yomon ko‘rsangiz, ular haqida gaplashmaymiz.

Sichqon Alisaning yoniga qaytdi.

— Avval eson-omon ko‘ldan chiqib olaylik. Shunda senga nima uchun it va mushuklarni jinim suymasligini aytaman, — dedi.

Ko‘l qushlar-u hayvonlarga to‘la edi. Alisa qarg‘a, sinchalak, qizil g‘oz va tipratikanni ko‘rdi.

— Endi hammamiz ko‘ldan bir amallab chiqib olishimiz kerak, — dedi Alisa.

Sichqon, qarg‘a, sinchalak, qizil g‘oz va tipratikan uning ortidan ergashdi.

SICHQONNING DUMI QAYG‘ULIMI?

Ular ko‘ldan chiqishganda Alisa juda sovqotgandi. U ho‘l bo‘lgan kiyimlarini qanday qilib quritishni bilmasdi. Qushlar va hayvonlar ham u kabi sovqotishgan, jiqqa ho‘l edilar.

— Qay biringiz endi qanday qilib ust-boshimizni quritishimizni aytadi? — so‘radi Alisa.

— Men sizlarni quritishga undayman, — dedi qarg‘a. — Kelinglar, kim o‘zarga chopamiz. Shunda ust-boshimiz tezda qurib qoladi.

Ammo hech kim «Bir, ikki, uch — yugurdik!» deb sanamadi. Ular barisi birgalikda oʻzicha yugurib, oʻzicha toʻxtadi.

Yigirma daqiqalardan keyin ularning ust-boshi quridi.

Qargʻa, kim oʻzarga yugurish tugadi, degach ular oʻtirib olishdi.

— Kim birinchi? — soʻradi hamma birvarakayiga.

— Barchamiz! — dedi qargʻa qagʻillab. — Endi hammamizga sovrin kerak.

«Ha, barchaga sovrin berish kerak», deb qushlar va hayvonlar shovqin sola boshlashdi. Keyin ular Alisani oʻrab olib, «Sovrin, sovrin!» deya qichqirishdi.

Alisa nima qilishini bilmay qoldi. U choʻntagidan bir hovuch qand topib, qushlar va hayvonlarga boʻlib berdi.





- Ammo senga ham sovrin berish lozim, — dedi sichqon.
- Cho'ntagingda yana nima bor? — so'radi qarg'a.
- Bitta qalamim bor, — javob berdi Alisa.
- Uni menga ber, — dedi qarg'a.

Qarg'a qalamni Alisadan oldi. Shunda jonivorlar Alisaga qaradi va qarg'a uni qaytarayotib:

- Senga bu sovrinni berishdan biz juda baxtiyormiz! — dedi.
- «Ular o'zimni qalamimni o'zimga sovg'a qilishdi! — o'yladi Alisa. — Bu ahmoqlik-ku!»

Biroq u qo'rqib o'zini kulishdan tiydi va odob bilan qalamni olib shunday dedi:

- Sizlardan nihoyatda minnatdorman!

So'ngra qushlar va hayvonlar shirinliklarni yeyishdi. Keyin ular sichqondan hikoyasini aytib berishni so'rashdi.

- Ayting-chi, nega M va Ini yoqtirmaysiz? — dedi Alisa (U Mushuk va It deyishdan qo'rqdi.)

— Hikoyam uzun va qayg'uli, — deya gap boshladi sichqon.

— Ha, dumingiz uzun, — dedi Alisa sichqonning dumiga qarab. — Ammo nega siz uni qayg'uli deyayapsiz?


— Uf, sen meni eshitmayapsan, — chiyilladi sichqon. — Sen meni tushunishga harakat ham qilmayapsan. Ahmoq qiz ekansan!

Sichqon o'rnidan turib nari ketdi.

— Iltimos, qayting, — dedi Alisa. — Qaytib hikoyangizni tugating. Biz uni eshitmoqchimiz.

Biroq sichqon qadamini tezlatdi.





— Afsuski, Dina bu yerda yo‘q-da, — dedi Alisa.

— Kechirasiz, Dina deganingiz kim? — so‘radi sinchalak.

Alisa mushugini shunchalik yaxshi ko‘rardiki, har doim Dina haqida so‘zlashga tayyor edi. Alisa gapga tushib ketdi:

— Dina bizning mushugimiz. U sichqon va qushlarni tutib yeydi...

Shunda jonivorlar astagina juftakni rostlay boshlashdi.

— Kechki havo menga yoqmaydi. Uyga borishim kerak, — dedi qarg‘a.

— Polaponlarim, uxlaydigan vaqt bo‘ldi, — dedi sinchalak polaponlariga.

Ular ko‘zdan g‘oyib bo‘lgach, Alisa yana yolg‘iz qoldi.

«Qayerdanam qushlarga Dina haqida gapirdim? — o‘yladi u. — Dina butun Angliyadagi eng yaxshi mushukligiga aminman, ammo bu yerda hech kim uni yoqtirmadi. Sevimli Dinam, seni juda ko‘rgim kelyapti!»

Boyaqish Alisa yana yig‘lay boshladi. Qo‘qqisdan u qandaydir shovqinni eshitdi. «Sichqon qaytyaptimikan?», o‘yladi u.

ALISA OQ QUYONNING UYIDA

Biroq kelayotgan sichqon emas, oq quyon edi. U nimanidir qidirib, atrofga alanglardi. Alisa yana o‘sha so‘zlarni eshitdi:

— Gersoginya, gersoginya! U g‘azablanadi! Meni qatl ettiradi. Biroq qo‘lqopimni topishim shart. Ularni qayerda tushirib qoldirdim ekan.

«Quyon yelpig‘ich bilan qo‘lqopini izlayapti chog‘i», — dedi Alisa o‘ziga o‘zi. Quyonga yelpig‘ich va qo‘lqopini topishga ko‘maklashmoqchi bo‘lib, atrofini ko‘zdan kechirdi, lekin hech narsa topolmadi.



Ko'p o'tmay quyon Alisaning shu yerdaligini payqab qoldi. U g'azablanib shunday dedi:

— Mariya Anna, bu yerda nima qilayapsan? Uyga yugur va mening oq qo'lqopim bilan yelpig'ichimni keltir. Tezroq!

Alisa qo'rqqanidan yugurib ketdi.

«U meni xizmatkor qiz bilan adashtirdi, shekilli, — deb o'yladi Alisa yugurayotib. — Uning uyini qayerdan topaman endi? Lekin, baribir, uyni topib, qo'lqop va yelpig'ich olib kelishim lozim».

Alisa bor kuchi bilan yugurardi. Ko'p o'tmay u ko'rkam uycha qarshisidan chiqdi. Uy eshigiga «Oq quyon», deb yozib qo'yilgan.

Alisa Mariya Annani, quyonning haqiqiy xizmatkorini uchratib qolishdan cho'chidi. U eshikni taqillatib o'tirmay ochdi va ichkariga kirdi.



Xona juda shinam edi. Deraza yonida stol turardi. Stol ustida esa u jajji oq qo'rqop va yelpig'ichni ko'rdi.

Alisa qo'rqop va yelpig'ichni olib ketishga chog'langanida, ko'zi oyna yonidagi shisha idishga tushdi.


Bu safar u idishda «Meni ich», degan yozuvni ko'rmasa ham, bir ko'tarishda uni bo'shatdi.

«Nimadir yuz berishi aniq, — o'yladi u. — yana o'ssam-chi? O'sganim yaxshi. Hozirgiday mitti bo'lib qolishni istamayman».

Alisa haq edi. U o'sa boshladi. Ko'p o'tmay boshi shiftga tegdi.

Unga endi xona haddan tashqari torlik qilib qoldi. U yerda yotib derazani ochdi-da qo'lini tashqariga chiqardi.

— Endi nima qilaman? — dedi boyaqish Alisa. — Uyimiz yaxshi edi. Men uyimizda bunday bir daqiqada o'sib yo kich-rayib qolmasdim. Sichqon va quyonlar qo'rqop-u yelpig'ich-



larini olib kelishni buyurishmasdi ham. O'zi nega quyoning uyasiga sakradim? Boshimdan o'tgan voqealarni kitob qilib yozsa bo'ladi. Endi nima qildim? Bu uydin qanday chiqaman.

Biroz vaqt o'tgach, u qandaydir ovozni eshitdi. Bu quyoning ovozi edi.

— Mariya Anna, Mariya Anna, — dedi quyon. — Qayerdasi? Qo'lqoplarimni olib kel.

Bechora Alisa quyondan juda qo'rqardi. U hatto ayni damda o'zining quyondan yuz barobar kattaligini ham unutib qo'ygandi. Quyon eshikni ochishga urindi, biroq ocholmadi.

Alisa yerda yotgani uchun beli eshikka tiralib turardi. Quyoning jon-jahdi bilan eshikni itarishi natija bermadi. So'ngra Alisa yana quyonni ovozinini eshitdi. Bu safar ovoz deraza ortidan kelardi.

— Men uyga derazadan kiraman.

«E, yo'q, kirolmaysan», o'yladi Alisa.

U derazadan chiqib turgan qo'li bilan quyoning qulog'ini ushlab olmoqchi bo'ldi. Ammo quyonni ushlolmadi, lekin kimningdir yiqilganini, keyin yig'laganini eshitdi.

So'ngra Alisaning qulog'iga quyoning jahli chiqib chinqirgani eshitildi:

— Pet! Pet! Qayerdasi?

Begona ovoz javob qildi:

— Men bog'da ishlayapman, janob!

«Pet bog'bon ekan», o'yladi Alisa.

— Bu yoqqa kel, — baqirdi Quyon. — Pet, qani menga ayt-chi, derazadan chiqib turgan narsa nima?

— Bu — qo'l, janob!

— Qo'li! Qanday ahmoqona javob. Qo'l ham shunchalik katta bo'lishi mumkinmi?

— Ishonchim komil, janob, bu — qo'li!

— Bor, uni yo'qot, — dedi quyon.

Ancha vaqt bog'bondan sado chiqmadi. Keyin Alisa uning ovozi eshitdi:

— Ma'zur tutasiz, janob, buyrug'ingizni bajarolmayman! Iymonim komilki, uddalay olmayman!

— Hoziroq aytganimni qil, ahmoq! — dedi quyon.

Alisa yana qo'lini derazadan chiqarib, ulardan birini tutib olmoqchi bo'ldi. Biroq uy egasi ham, bog'bon ham bu yerda yo'q edi. Birozdan so'ng ular qaytishdi va yana gaplasha boshlashdi.

«Endi nima qilishmoqchi? — o'yladi Alisa. — Ular meni derazadan tortib olishga harakat qilishmoqchimi? Yo'q, bu qo'llaridan kelmaydi!»

Qo'qqisdan kimdir unga tashqaridan tosh ota boshladi. Bitta tosh uning yuziga tegdi.

— Men bunga chek qo'yaman, — dedi Alisa o'ziga o'zi va tashqariga eshitaladigan qilib baqirdi: — Yana tosh otsanglar, pushaymon bo'lasizlar. Mushugim Dina sizlarni yeb qo'yadi!

Alisa yerda yotgan toshga qaradi.

— Bu nima o'zi? — dedi u. — Bu tosh emas, pirojniy-ku! Shunda uning miyasiga ajoyib fikr keldi.

«Men pirojniydan yeb ko'rishim kerak. Biror narsa bo'lishi aniq. Balki yana kichrayarman».

U pirojniyni yedi va kichraya boshladi. Ancha kichraygach, uydan tashqariga yugurdi. Hayvonlar va qushlar uni eshik

ortida kutib turishgan ekan. Lekin Alisa juda tez yugurib, ularni ortda qoldirib ketdi.

Alisa uzoq yugurib, qalin o'rmonga kirib qoldi. U juda charchagan, isib ketgandi. Dam olish uchun bir daraxt tagiga o'tirdi va qo'liga barg olib yuzini yelpiy boshladi. Ozigina dam olgach, o'ziga o'zi gapira ketdi:

— Endi nima qildim? Avval, bir oz o'sib, asl holimga qaytishim kerak. Keyin chiroyli gullar o'sgan bog'ni topishim zarur. Menimcha, bu eng yaxshi reja.

Ha, bu ma'qul reja edi. Ammo u endi yana qanday qilib o'sadi? Alisaning boshi qotdi.

ALISA VA IPAK QURTI SAVOL

— O'ylashimcha, — dedi Alisa. — Men biror narsa yeyishim yoki ichishim kerak. Ammo nima yeyman yo ichaman?

U atrofga qaradi. Bir qaraganida yeyish yoki ichish uchun hech nima topa olmadi. Keyin ro'parasida katta qo'ziqorinni ko'rdi. Kattaligi o'zidek keladigan qo'ziqorin ustiga mushtday ko'k ipak qurti o'tirib olgan edi.

Ipak qurti va Alisa ancha payt bir-birlariga indamay tikilib turishdi. Nihoyat ipak qurti savol berdi:

— Kimsan?

Bechora Alisa biroz o'ylanib, odob bilan javob qaytardi:

— Kimligimni o'zim ham bilmayman, janob. Ertalab uyqudan uyg'onganimda kimligimni bilardim. Biroq keyin kattardim, so'ng kichrayib, keyin yana o'sdim, haligina yana kichrayib qoldim. Shuning uchun hozir sizga kimligimni aytolmayman.

— Tushunmadim, — dedi ipak qurti. — Gaplaring juda ahmoqona.



— O‘zim ham tushunolmayapman, — dedi xushmuomalalik bilan Alisa. — Men har o‘n daqiqada bir kattarib, bir kichrayapman. Bu juda g‘alati.

— Yo‘q, g‘alati emas, — dedi ipak qurti.

— Menimcha, g‘alati, — dedi Alisa yana.

— Seningcha? — dedi ipak qurti. — Sen kimsan o‘zi? Sendan ikkinchi marta so‘rayapman. Javob berasanmi?

Alisa ipak qurtining jahli chiqayotganini sezdi. «Lekin savoliga javob berdim-ku», o‘yladi Alisa. Endi uning ham achchig‘i chiqdi.

— Avval o‘zingiz kimligingizni aytishingiz kerak, — dedi Alisa ipak qurtiga.

— Nahotki shart bo‘lsa? — so‘radi ipak qurti.

Alisa nima deyishini bilmay qoldi. Shunda u jimgina ipak qurtidan uzoqlasha boshladi.

— Ortingga qayt, — qichqirdi ipak qurti. — Senga bir narsani aytnoqchiman.

Alisa ortga burildi. «Ipak qurti menga qanday qilib o‘shini aytsa yaxshi bo‘lardi», deb o‘yladi u.

— Jahling chiqmasin, — dedi ipak qurti.

— Bor gapingiz shumi? — dedi Alisa.

Ipak qurti biroz sukut saqlab turdi-da, keyin shunday dedi:

— Gapingga qaraganda, sen har o‘n daqiqada bir o‘sib, bir kichrayib qolasan. Shundaymi?

— Ha, janob, — javob berdi Alisa.

— Bo‘ying hozirgiday holatda qolishini istarmiding? — so‘radi ipak qurti.



— Men ozgina o'sishni istayman, janob, — javob berdi u. Ipak qurti qo'ziqorindan maysalar ustiga tushdi. Alisa biroz kutdi. Keyin ipak qurti shunday dedi:

— Bir tomoni o'stirar, boshqasi kichraytirar.

«Nimaning bir tomoni? — o'yladi boyaqish Alisa. — Nimaning boshqa tomoni? Tushunmadim». U so'rashga qo'rqdi.

— Qo‘ziqorinning-da! — dedi qo‘qqisdan ipak qurti va ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Alisa uzoq vaqt qo‘ziqoriga tikilib turdi. U ipak qurtining gaplarini anglashga urindi. «Axir, qo‘ziqorin dumaloq-ku, — o‘yladi u. — Uning bir tomoni qaysi-yu, boshqa tomoni qaysi? Tushunmadim».

U o‘ng va chap qo‘li bilan qo‘ziqorindan ikki bo‘lak sindirib oldi. O‘ng qo‘lidagi bo‘lakdan tishlagandi shu qadar kichrayib qoldiki, iyagi oyog‘iga tegdi. Alisa shu zahoti chap qo‘lidagi bo‘lakdan tishladi va birdan devday qizga aylandi. U endi o‘z oyoqlarini ham ko‘rmasdi. Hatto yelkalarini ham ko‘rolmas, ularni ko‘zi ilg‘amayotgandi.

«AYEL, ILON EMAS, QIZCHAMAN»

Alisaning bo‘yni behad cho‘zilib ketdi. Pastga qaraganda faqat bo‘yni ko‘rindi. Tanasi butkul ko‘rinmay qoldi.

«Menga nima bo‘ldi? — o‘yladi Alisa. — Mening yelkam, qo‘llarim qayerda? Ularni ko‘rolmayapman. Ularni ko‘zim ilg‘ay olmayapti».

U qo‘lini boshiga tegizmoqchi bo‘ldi, biroq bo‘yni haddan tashqari uzun edi. Keyin boshini qo‘llariga egmoqchi bo‘ldi. Qanday ajoyib! Uning bo‘yni xuddi ilonnikiday o‘ngga, chapga, yuqoriga, pastga burilardi.

«Bo‘ynim egri-bugri chiziqqa o‘xshab qoldi, — o‘yladi Alisa. — Bu nima?» U yonidagi yashil barglarni ko‘rdi.

«Daraxtlar, — o‘yladi u. — Bo‘yning uzun bo‘lgani ham yaxshi, endi qushlarni, ularning inlarini bemalol ko‘ra olaman». Gala-gala qushlar uning boshi atrofida uchardi. Qo‘qqisdan nimadir uning yuziga urildi. Bu qush edi.



— Ilon! — chirqilladi qush. U qoʻrqib ketgandi. — Daraxtda ilon oʻrmayapti!

Boshqa qushlar ham chirqirashdi:

— Daraxtda ilon bor. U tuxumlarimizga koʻz olaytiriyapti!



— Men ilon emasman! — dedi bechora Alisa. — Men mittigina qizchaman!

— Sen ilonsan, — deb chirqillashdi uning boshi atrofida ucha-yotgan qushlar. — Biz qizaloqlarni ko'rganmiz, ular jajjigina bo'lishadi. Buning ustiga ularning bo'yinlari ham kalta. Boshlari daraxtga tegib turmaydi. Tuxumlarimizga ko'z olaytirayotganingni bilamiz. Sen ularni yemoqchisan. Sen ilonsan.

— Kichkina qizlar ham tuxum yeydi... — deb gap boshladi Alisa. Lekin gapini tugatolmadi, chunki qushlar zumda inlari tomonga uchib ketishdi.

«Ular mendan qo'rqishdi, chunki bo'ynim ilonnikiday uzun. Biroq menda yana bir bo'lak qo'ziqorin bor. Men hali kichraya olaman», o'yladi Alisa.

U darhol o'ng qo'lidagi qo'ziqorin bo'lagidan tishladi va kichraya boshladi. Ko'p o'tmay u kichkina bo'lib qoldi. Keyin Alisa so'qmoqdan yura boshladi, ancha yurganidan so'ng qarshisidan bir uy chiqdi.

KULADIGAN MUSHUK

Alisa nima qilishini bilmay, bir necha daqiqa uy ro'parasida turib qoldi.

Qo'qqisdan o'rmon tomondan xizmatkor kiyimida yugurdak chopib chiqdi. Uning yuzi baliqnikiday bo'lsa ham, xizmatkor kiyimida bo'lgani uchun, Alisa uning yugurdak ekanini payqadi. Xizmatkor uy eshigini taqillatdi. Boshqa bir yugurdak eshikni ochdi. Uning yuzi dum-dumaloq, ko'zlari esa qurbaqanikidek katta-katta edi.

Ularning ko'inishi juda kulgili edi! Alisa ularni yaxshiroq ko'rish va eshitishni istab, yaqinroq keldi.

Yugurdak baliqning qo'lida katta xat bor edi. U xatni yugurdak qurbaqaga berib, shunday dedi:

— Qirolichadan. U gersoginyani kriket o'ynashga taklif qilayotir.

So'ng ular bir-birlariga ta'zim qilishdi.

Bu Alisaga g'alati tuyuldi, u o'zini kulgudan tiya olmadi.

«Men o'rmonga berkinishim kerak, — o'yladi u. — Ular meni eshitib qolishadi».

Alisa o'rmondan qaytib chiqqanda yugurdak baliq ketib bo'lgandi. Yugurdak qurbaqa esa eshik yonida o'tirardi. U osmonga tikilib qolgandi.

Alisa eshik yoniga kelib, uni taqillatdi.





— Taqillatma! — dedi yugurdak Qurbaqa. — Men tashqaridaman. Kim senga eshikni ochadi? Uydagilar shunday shovqin-suron qilishyaptiki, seni hech kim eshitmaydi ham.

U haq edi. Uyda shovqin-suron avjiga chiqqandi. Ular dam baqirishar, dam tinmay aksirishardi. Buning ustiga idishlar va likopchalarni uloqtirishib, chil-chil qilishayotgandi.

— Ma'zur tutasiz, — dedi Alisa xushmuomalalik bilan, — uyga qanday kirsam bo'ladi?

Biroq yugurdak qurbaqa lom-mim demadi.

— Uyga qanday kirsam bo'ladi? — savolini takrorladi Alisa.

— Men bu yerda hali uzoq o'tiraman, — javob berdi yugurdak qurbaqa. — Kun bo'yi shu yerdan jilmayman.

Shu payt eshik ochilib, katta likopcha tashqariga uchib chiqdi. U yugurdakning burniga tegdi va yerga tushib chil-chil bo'ldi.

— Ertaga ham kun bo'yi shu yerda o'tiraman shekilli, — dedi qurbaqa pinagini buzmay. U hanuz osmonga tikilardi. Alisa xayolga soldi: «Ishonchim komilki, u nuqul osmonga qaraganidan burnining tagida nimalar bo'layotganini ko'rmaydi».

— Uyga qanday kirsam bo'ladi? — uchinchi marta so'radi Alisa.

— Uyga kirib nima qilasan? — dedi qurbaqa.

Alisaga uning gapirish ohangi yoqmadi.

«Bu hayvonlar juda ko'p gapirarkan», o'yladi u.

Biroq qurbaqa uning javobini kutmasdan shunday dedi:

— Men endi kun-u tun shu yerda o'tiraman.

— Lekin men nima qilay? — so'radi Alisa.

— Sen nima qilmoqchisan o'zi? — so'radi qurbaqa.

«Nega u bilan gaplashyapman o'zi? — o'yladi Alisa. — Axir, uning esi joyidamas-ku».

Alisa eshikni ochib, ichkariga kirdi.

U endi katta oshxonada edi. Oshxona juda issiq bo'lib, gersoginya xona o'rtasidagi uch oyoqli stulda o'tirardi. Uning qo'lida chaqalog'i bor edi. Oshpaz katta qozonda nimadir pishirayotgandi.

«Qozon to'la sho'rva, — o'yladi Alisa. — Sho'rvaga qalampirni ko'p solishgan, chog'i». Alisa aksira boshladi. U o'zini aksirishdan to'xtatolmas, chunki hamma yoqni qalampir hidi tutib ketgandi. Hatto gersoginya ham aksirardi. Bechora chaqaloq ham tinmay aksirardi. U goh chinqirar, goh aksirardi. Faqat oshpaz aksirmasdi. Yerda esa katta mushuk o'tirar, og'zi qulog'iga yetgudek tirjayardi.

— Marhamat qilib ayting-chi, — so'radi Alisa odob saqlab, — mushugingiz nega kulyapti?

— Chunki u cheshirlik mushuk, — javob berdi gersoginya. — Cho'chqa!

Alisa uning «Cho'chqa!» deganidan cho'chib sakrab tushdi.

Birozdan so'ng gersoginya unga emas, chaqaloqqa baqirganini tushundi.

Alisa yana gap boshladi.

— Mushukning jilmayishi g'alati ko'rinar-kan!

— Ularning bari jilmaya oladi. Ba'zilar esa tirjaygani tirjaygan, — dedi gersoginya.

— Buni bilmas ekanman, — dedi Alisa muloyimlik bilan. U gersoginya bilan suhbatlashayotganidan mamnun edi.

— Sen juda ko'p narsalarni bilmaysan, — dedi gersoginya.

— Bu — haqiqat.





Alisaga uning gapirish ohangi yoqmadi. U boshqa narsalar haqida suhbat qurishni istardi. Ammo qo'qqisdan oshpaz gersoginya va chaqaloqqa idish-tovoqlarni ota boshladi. Idishlar tegsa ham gersoginyaning jahli chiqmasdi. Biroq Alisa sakrab turib baqirdi:

— Hoy, nima qilayapsiz o'zi?

— Agar istasang chaqaloqni o'ynatib o'tir. Men qirolicha bilan bo'ladigan kriket o'yiniga tayyorlanishim kerak, — deb gersoginya chaqaloqni Alisaga qarab irg'itdi.

Alisa chaqaloqni ilib olib, tashqariga — toza havoga qochib chiqdi.

— Men chaqaloq bilan uzoqroqqa ketishim kerak, bo'lmasa ular go'dakni o'ldirib qo'yishadi.

Chaqaloq yig'lash o'rniga negadir cho'chqadek chiyillardi.

— Chiyillama, — dedi Alisa, — sen cho'chqa emas, chaqaloqsan.

Shu payt Alisa qo'lidagi go'dakka qaradi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, u chaqaloq emas, cho'chqacha ekan.

«Cho'chqani uyimga olib borib nima qilaman? — o'yladi Alisa. — Yo'q, uni o'zim bilan olib ketolmayman». U mitti jonivorni maysa ustiga qo'yib yuborgandi, u o'rmon ichiga qarab yugurib ketdi.

Alisa ham o'rmon sari yo'l oldi. Shu payt uning ko'zi che-shirlik mushukka tushdi. Mushuk daraxtda o'tirardi. Shunda mushuk Alisadan so'radi:

— Bugun qirolicha bilan kriket o'ynaysanmi?

— Men kriket o'ynashni yoqtiraman, — javob berdi Alisa,

— biroq men qirolichani, qirolicha esa meni tanimaydi.



- Sen bilan o'sha yerda ko'rishamiz, — deb mushuk ko'z-
dan g'oyib bo'ldi. Ammo bir oz o'tgach, yana paydo bo'lib:
— Aytmoqchi, chaqaloq nima bo'ldi? — deb so'radi.
— U cho'chqaga aylanib qoldi, — javob berdi Alisa.
— To'ppa-to'g'ri, — dedi mushuk.

Birdan mushukning dumi yo'qola boshladi. So'ng tanasi,
keyin esa boshi g'oyib bo'ldi. Endi Alisa havoda faqat uning
tabassumini ko'rardi. Nihoyat u ham g'oyib bo'ldi.

— Ana, xolos, — dedi Alisa, — men ko'pgina tabassumsiz
mushuklarni bilaman-u, biroq mushuksiz tabassumni... Juda
g'alati ko'rinarkan!

Biroz yurgach Alisa quyoning uyini ko'rdi. Yanglishishi
mumkin emasdi — uyning tomida quyoning quloqlarini esla-
tuvchi ikkita mo'ri chiqib turardi. Alisa avvaliga chap qo'lidagi
qo'ziqorinni yeb biroz kutdi, keyin esa ikkilanib uy sari odim-
ladi.

BEMA'NI CHOYXO'RLIK

Uy yonidagi daraxt ostida bezatilgan stol, uning atrofida esa quyon va kallavaram choy ichishar, ularning o'rtasida esa sichqon qattiq uxlab yotardi. Kallavaram va quyon unga yostiqlikday tirsaklarini tirab olib, boshi uzra suhbatlashishardi.

«Bechora sichqon, — o'yladi Alisa. — Unga juda noqulay bo'lsa kerak! Shunga qaramay uxlayapti, demak, unga baribir».

Stol katta edi, lekin choyxo'rlar uning bir tomonida o'tirishardi. Ular Alisani ko'riboq:

— Band! Band! Joy yo'q, — deb baqira ketishdi.

— Joy yetarlicha-ku! — ajablandi Alisa stol to'ridagi kursiga o'tirayotib.

— Vinodan ol, — taklif qildi quyon.

Alisa stolga qaradi, biroq na vino idishiga, na qadahga ko'zi tushdi.

— Men uni ko'rmayapman-ku, — dedi Alisa.

— Albatta-da! U bu yerda yo'q-da! — javob berdi quyon.

— Unda siz nega menga buni taklif qildingiz? — dedi ranjib Alisa. — Bu odobdan emas.

— Sen-chi, nega taklifsiz o'tirib olding? Bu ham odobsizlik.





— Men dasturxon faqat siz uchun tuzalganini bilmabman,
— dedi Alisa. — Idishlar ko'pchilik uchun qo'yilgan.

— Sochlaring kaltalatishni istayapti! — gapga aralashdi boyadan beri Alisaga qiziqsinib qarab turgan kallavaram.

— Shaxsiyatga tegilmasin, — dedi Alisa.

— Bu, qo'rslik! — qarg'a nimasi bilan yozuv stoliga o'xshaydi, — so'radi u nihoyat.

«Topishmoq aytish yaxshiroq... bu ancha quvnoqroq...» o'yladi Alisa.

— Menimcha, buning javobini topa olaman, — dedi Alisa.

— Sen bu topishmoqni javobini bilaman deb o'ylashingni aytmoqchimisani? — so'radi quyon.

— Xuddi shunday, — tasdiqladi Alisa.

— Unda shunday de, — izohladi quyon. — Nimani o'ylasang doim shuni gapir.

— Shunday qilayapman ham, — tushuntira ketdi Alisa. — jilla qurisa, doim gapirganimni o'ylayman. Bu ikkisi bir xil-ku...

— Hechamda, — e'tiroz bildirdi kallavaram. — Sen «Men nima yesam shuni ko'raman» va «Nima ko'rsam shuni yeyman» degan gaplarni bir xil deyapsan.

— Sen hali «Negaki ega bo'lsam shuni yaxshi ko'raman» va «Nimani yaxshi ko'rsam shunga egaman» deganini ham bir xil deyapsan, — dedi quyon.

— Sen yana «Uxlayotib nafas olaman» va «Nafas olib uxlayman» deganni ham bir xil deyapsan, — dedi sichqon ko'zlarini ochib.

— Sen uchun bularning bari bir xil, — deb kallavaram suhbatga nuqta qo'ydi.

Bir daqiqa barcha jimib qoldi. Alisa qarg'a va yozuv stolining o'xshash tomonini o'ylayotgandi.

— Bugun nechanchi sana? — gap boshladi kallavaram cho'ntagidan soatini chiqarayotib Alisaga o'girildi-da. U soatiga ajablanib tikildi-da, qulog'iga tutdi.

Alisa o'ylab turib javob berdi:

— To'rtinchi.

— Ikki kunga ortga qolyapti, — xo'rsindi kallavaram. — Aytgandim-ku, uni saryog' bilan moylash mumkin emas deb, — dedi jahl bilan quyonga o'girilib.

— Saryoq yangi edi, — e'tiroz bildirdi quyon.

— Ha, ammo unga ushoq tushgan. Non pichog'i bilan moylash kerakmasdi, — dedi kallavaram.

Quyon soatni olib, ma'yus qarab turdi-da, choy to'la finjonga botirdi va yana tikilib turdi-da:





— Ishontirib aytamanki, saryog‘ yangi edi, — qaytardi u. Alisa qiziqib, uning yelkasi osha soatga qaradi.

— Qanday g‘aroyib soat! U soatni emas, sanani ko‘rsatarkan, — dedi u.

— Buning nimasi ajablanarli? Sening soating yilni ko‘rsatadimi? — ming‘illadi kallavaram.

— Albatta yo‘q! Axir yil juda uzoq-ku! — javob berdi Alisa.

— Menda ham xuddi shunday! — dedi kallavaram.

— Men sizni unchalik tushunmadim? — dedi Alisa xafa bo‘lib.

— Topishmoqni topdingmi? — so‘radi kallavaram.

— Yo‘q! Yengildim. Javobi qanday edi? — dedi qizcha.

— Xabarim yo‘q, — javob berdi kallavaram.

— Meni ham, — qo‘shildi quyon.

Alisa xo‘rsindi.

— Qiladigan ishingiz bo‘lmasa, yaxshiroq javobsiz topishmoq o‘ylab topsangiz bo‘lardi. Bo‘lmasa bu vaqtni behuda sarflash bo‘ladi.

— Agar sen vaqtni mendek yaxshi bilganingda bunday demagan bo‘larding. Uni yo‘qotmaysan, — dedi kallavaram.

— Tushunmadim, — dedi Alisa.

— Albatta-da. U bilan hecham gaplashmagansan!

— Balki gaplashmagandirman, — ehtiyotkorlik bilan so‘zlardi Alisa. — Har qalay vaqtni qanday o‘ldirishni o‘ylamaganman.

— Unda bari tushunarli, — dedi kallavaram. — Vaqtni o‘ldirish! Bu unga yoqarmidi! Vaqt bilan urishmasang, undan istaganingni so‘rashing mumkin. Masalan, hozir soat to‘qqiz va

sen darsga borishing kerak. Unga shivirlab aytsang bas, millar oldinga yuguradi va bir zumda tushlik payti — ikki bo‘lib qoladi.

— Yaxshi bo‘lardi, — ohista xo‘rsindi quyon.

— Albatta, bu juda ajoyib bo‘lardiku-ya, ammo och qolishga ulgurmasdim-da, — o‘ylanib dedi Alisa.

— Avvaliga shunday, biroq soat milini istaganingcha ikki yarimda ushlab turishing mumkin. — Siz shunday qilgansiz-a? — so‘radi Alisa.

Kallavaram bosh chayqadi va tushuntirdi:

— Yo‘q. Biz u bilan martda urishib qolganmiz. O‘shanda qirolicha katta konsert bergandi va men unda «Ukki» qo‘shig‘i-ni kuylashim kerak edi. Bu qo‘shiqni bilasanmi?

— Eshitgandayman, — dedi Alisa.

— Birinchi to‘rtlikni tugatishim hamonoq kimdir: «Kuylamas yaxshi bo‘lardi, biroq nimadir vaqtni o‘ldirishi kerak-ku» deb qoldi. Qirolicha shunda: «Vaqtni o‘ldirish! U vaqtni o‘ldirmoqchi! Kallasini oling», deya baqirdi.

— Qanday dahshat, — hayron qoldi Alisa.

— Shundan beri vaqt men uchun hech nima qilmay qo‘ygan. Soat esa doim olti...

— Demak, dasturxon choy uchun tuzalgan ekan-da? — so‘radi Alisa.

— Ha, bu yerda choyxo‘rlikning keti uzilmaydi. Biz hatto idishlarni yuvishga ulgurmaymiz.

— Shunchaki o‘tiraverasizlar-a? — taxmin qildi Alisa.

— Xuddi shunday finjonni bo‘shatib, keyingisiga o‘taveramiz, — dedi kallavaram.



— Oxiriga yetganda-chi, unda nima bo'ladi? — so'radi Alisa.

— Mavzuni o'zgartirsak-chi, unda nima bo'ladi, — dedi quyon. — Bu suhbat jonga tegdi. Oyimqiz ertak ayta qolsin.

— Men hech nimani bilmayman-da — qo'rqib dedi Alisa.

— Unda sichqon ayta qolsin. Sichqon, uyg'on, — birvarakayiga qichqirdi quyon va kallavaram.

— Men uxlaganim yo'q. Gaplaringizni barini eshitdim, — dedi sichqon.

— Ertak ayt, — talab qildi quyon.

— Ha, iltimos ayta qoling! — qo'shildi Alisa.

— Shoshilmasang yana uxlab qolasan, — dedi kallavaram.

— Bir bor ekan, bir yo'q ekan, uchta opa-singil bo'lgan ekan. Ularni Elsi, Lesi va Tilli deb atashar ekan. Ular quduq tubida yashasharkan.

— Nima yeb kun ko'rarkan? — so'radi Alisa. U doim odamlar nima yeyishi bilan qiziqardi.

— Qiyom, — dedi sichqon biroz o'ylab olgach.

— Doim qiyom yeb bo'lmaydi axir. Kasal bo'lib qolish mumkin, — muloyimlik bilan e'tiroz bildirdi Alisa.

— Ular shu tariqa yashashar ekan va yana nima «M»dan boshlansa shuni suratini chizisharkan, — ko'zlarini ishqalab davom etdi sichqon.

— Nega endi «M»dan? — so'radi Alisa.

— Nega endi «M» bo'lmasligi kerak? — so'radi quyon.

— «M»dan boshlanadigan, — davom etdi sichqon. — Ular mishiqli-sichqonlarni, martni, matematikani, miqdorni chizishardi. Sen qachondir miqdorni rasmini chizishganini ko'rganmisan?





— Nimaning miqdorini? — so‘radi Alisa.

— Hech nimaning. Shunchaki miqdorni, — javob berdi sichqon.

— Bilmasam, balki... — deya gap boshlagan Alisani kallavaram shartta to‘xtatib:

— Bilmasang, jim o‘tir, — dedi.



Alisa bunday qo‘pollikka toqat qilolmadi. O‘rnidan shartta turdi-da, indamay ulardan nari ketdi. Quyon ham, kallavaram ham unga e‘tibor qilishmadi. Bir-ikki bor ortiga o‘girilgan Alisa, uni qayta chaqirib qolishlaridan umid qilgandi. So‘nggi bor o‘girilganida ular sichqonni choynakka tiqishayotganini ko‘rdi.

QIROLICHANING BOG‘I

— Endi, — dedi Alisa, — men chiroyli gulli go‘zal bog‘ga kirishim kerak. Ammo uni qayerdan topaman?

U atrofiga qaradi. Alisa ulkan daraxt yonida turgandi. U daraxtda eshik borligini payqadi va uni ochib ichkariga kirdi.

Bu kichkina eshik orqali uzun xonaga kirib qoldi. Mitti stol avvalgidek o‘z joyida turardi. Stol ustida esa tilla kalit bor edi.

«Nihoyat eshikni ocharkanman-da», o‘yladi Alisa. U chaqqonlik bilan stol ustidagi tilla kalitni olib, eshikchani ochdi. Afsuski, Alisa eshikka sig‘madi. Shu payt u o‘ng qo‘lidagi qo‘ziqorin bo‘lagidan tishlab, bir zumda kichrayib qoldi va nihoyat go‘zal bog‘ga kirdi.


Bog‘da juda ko‘p rang-barang gullar o‘sib yotardi. U bir burchakdagi katta atirgul daraxtini ko‘rdi. Unda oppoq atirgullar ochilib turardi. Uchta bog‘bon bu gullarni qizil rangga bo‘yayardi. Alisa ularga tikilib, uzoq turib qoldi.

«Ular nima qilishayapti o‘zi?», o‘yladi u.

U bog‘bonlarga yaqinroq kelib, odob bilan savol berdi:

— Kechirasiz, ayta olmaysizmi, nega oq atirgullarni qizilga bo‘yayapsiz?

Uchala bog‘bon ham hech nima demay, Alisaga tikilib qarashdi.



Tuyqus Alisa ularning haqiqiy odamlar emasligini payqadi. Ular qartalar edi! Biri beshlik, boshqasi yettilik, uchinchisi esa ikkilik qarta edi.

«G'alati-ku! — o'yladi Alisa. — Bog'bonlar qarta ekan... Ammo to'plamdagi boshqa qartalar qayerda?»

— Bilasizmi, xonim, — dedi nihoyat ikkilik, — biz xato qilibmiz. Bu yerga oq atirgul daraxtini ekib qo'yibmiz, ammo qirolichamiz oq atirgullarni yomon ko'radi. U faqat qizil atirgullarni yaxshi ko'radi. Biz undan qo'rqamiz. U boshimizni tanamizdan judo qilishi mumkin. Hamma undan qo'rqadi. Har daqiqa u: «Boshini tanasidan judo qil», deb baqiradi. Shuning uchun ham biz oq atirgullarni qizilga bo'yayapmiz, qirolicha bu xatomizni payqamasligiga umid qilamiz.

Shu payt beshlik:

— Qirolicha! Qirolicha! Qirolicha! — deb baqirdi.

Uchala bog'bon ham yerga yuztuban yiqilishdi. Alisa atrofga qaradi va tantana bilan saf tortib kelayotgan qartalarni ko'rdi.



Qartalar juft-juft bo'lib, bir-birlarini qo'llaridan ushlab kelishayotgandi. Avval Alisa askarlarni ko'rdi. Keyin ularning ortidan kelayotgan qirol va qirolicha ham qarta ekanini payqadi. Qo'qqisdan oq quyonga ko'zi tushdi. U qirolicha bilan gaplashar, Alisani esa ko'rmayotgandi. Keyinroq yonidan valet toppon o'tib ketdi. Nihoyat u qirol va qirolicha topponlarni ko'rdi.

«Men ham yerga yuztuban yotishim kerakmi? — o'yladi Alisa. — Yo'q, men bunday qila olmayman. Yuztuban yotib tantanali yurishni ko'rmasang undan nima foyda?»

Alisa turgan joyida turaverdi. Nihoyat saf tortgan qartalar unga yaqin keldi.

Hamma qartalar Alisaga qarab to'xtab qolishdi. Qirolicha toppon unga tikilib qarab, so'radi:

— Kim bu?

U savolni valet topponga bergandi. Biroq u faqatgina ta'zim qildi va hech narsa demadi.

— Ovsar, — dedi qirolicha va Alisa tomonga burilib so'radi:

— Isming nima, qizaloq?

— Mening ismim Alisa, hazrati oliyalari, — odob bilan javob berdi Alisa. Ammo u o'z o'ziga shunday derdi: «Ular shunchaki bir dasta qarta, xolos. Ulardan qo'rqmasligim kerak».

Keyin qo'shin uch bog'bonga yaqinlashdi. Ular atirgul daraxti ostida yuzlarini yerga bosib yotishardi.

— Kim bular? — so'radi qirolicha. Uning so'rashiga sabab qartalar yuzlari bilan yerga yotgani uchun qirolichaga faqat ularning yelkasi ko'rinardi. Baxtga qarshi hamma qartaning orqa tomoni bir xil.

— Ular bog‘bonmi, askarmi, kim ular deyaqman? — qichqirdi jahli chiqqan qirolicha.

— Men qayerdan bilay, — dedi Alisa. — Bu yerda hech kimni tanimayman.

«Balki javobim qo‘pol chiqqandir. Ammo men undan qo‘rqmayman. U shunchaki qarta, xolos», o‘yladi Alisa.

Qirolicha quturgan itdek Alisaga o‘qrayib qaradi. Uning yuzi qizarib ketdi. Keyin qo‘qqisdan shunday deb baqirdi:

— Boshini tanasidan judo qiling!

— Qanday ahmoqlik, — dedi Alisa.

Qirol qirolichaning qo‘lidan ushlab shunday dedi:

— Azizam, u axir go‘dak-ku. Buni unutma.

Qirolicha jahl bilan yuzini burib, valet topponga buyurdi:

— Ularni o‘gir!

Valet bir oyog‘i bilan yuztuban yotgan bog‘bonlarni o‘girdi.

— Turinglar! — qichqirdi qirolicha.

Uchala bog‘bon ham sakrab turishdi. Ular uzundan-uzoq ta‘zim qilishdi.

— Bas! — qichqirdi qirolicha. U atirgul daraxtiga tikilib qaradi va dedi:

— Daraxtga nima qilayapsizlar?

Ikkilik qarta ta‘zim qilib, gapira boshladi:

— Hazrati oliyalari, biz haligi...

Biroq qirolicha uning gapini bo‘lib shunday dedi:

— Ha, tushunarli. — Keyin u askarlarga burilib qichqirdi:
— Bularning boshini tanasidan judo qiling!

Qirolicha va qo‘shin nari ketdi. Askarlar bog‘bonlarni tutishmoqchi bo‘lishganda ular yordam so‘rab Alisaga yolvorishdi.



— Men sizlarga yordam beraman, — dedi Alisa. — Ular sizlarni boshingizni olisholmaydi.

Alisa bog‘bonlarni yonida turgan ulkan tuvakka berkitdi. Askarlar ularni topisholmay, bir ozdan so‘ng qo‘shin ortidan ravona bo‘lishdi. Alisa ham ular bilan jo‘nadi.

— Kriket o‘ynay olasanmi? — qo‘qqisdan qichqirdi qirolicha. Askarlar lom-mim demay Alisaga qarashdi. Hamma unga qarab turardi. Alisa qirolicha askarlarga emas, o‘ziga savol berganini angladi.

— Ha, — javob berdi u. — O‘ynay olaman.

— Unda boshladik, — dedi qirolicha.

— Kun juda isidi-da, — dedi kimdir ingichka ovoz bilan.

Alisa burilib yonida kelayotgan oq quyonni ko‘rdi.



— Ha, rosa isidi, — dedi Alisa. — Gersoginya qayerda?
— Jim! Jim! — dedi quyon. U atrofga koʻz yugurtirdi-da, Alisaning qulogʻiga dedi:

— Gersoginya qamoqxonada. Ular uning boshini olishmoqchi.

— Nega? — soʻradi Alisa.

— U qirolichaning yuziga shapaloq tortib yubordi... — deb gap boshladi quyon.

Alisa kulib yubordi.

— Zoʻr ish boʻpti! — dedi u.

Biroq quyon qoʻrqib ketdi. U Alisaga dedi:

— Jim! Qirolicha eshitib qolishi mumkin. Gersoginya kech kelgandi. Qirolicha uning boshini olib tashlang, dedi. Shunda Gersoginya...

Shu payt Qirolicha:


— Hamma joy-joyiga. Oʻyinni boshlaymiz, — deb qichqirdi.

Qartalar kriket maydonida u yoqdan bu yoqqa yugurishar, bir-birlariga urilib yiqilishardi. Nihoyat oʻyin boshlandi.

QIROLICHANING KRIKET MAYDONI

Kriket maydoni ham, oʻyin ham juda antiqa edi! U yerda haqiqiy kriket koptoklari oʻrniga tipratikanlar turardi. Tayoqlar oʻrnida esa flamingolardan foydalanilar — ularning boshi bilan tipratikanlarni urishardi. Alisaning ham qoʻlida flamingo bor edi. U qushning boshi bilan koptokni urishga harakat qildi. Ammo har gal «koptok» yugurib ketardi.





Hamma o'yinchilar bir vaqtda o'ynashar, koptoklar ketidan yugurishar, koptoklar esa qochardi. Ha, bu juda antiqa o'yin edi!

Ko'p o'tmay qirolichaning jahli chiqa boshladi. U har daqiqa: «Boshini tanasidan judo qiling!», deb baqirardi.

Alisa esa o'ziga o'zi shunday dedi:

«Qirolicha menga umuman yoqmadi! U boshimni olib tashlashi mumkin. Bu yerdan uzoqroqqa ketishim kerak». Qo'qqisdan Alisa havoda nimanidir payqab qoldi. Avvaliga uning nimaligiga aqli yetmadi. Keyinroq esa uning jilmayish ekanini tushundi. U o'ziga o'zi dedi:

«O, bu do'stim cheshirlik mushuk-ku. Uni yana uchratganimdan benihoya xursandman. Nihoyat kim bilandir suhbatlashish nasib etdi».


Ko'p o'tmay Alisaga mushukning og'zi, burni va ko'zlari ko'rindi.

Mushukning ko'zlari paydo bo'lgach, Alisa ta'zim qildi.

— Qalaysan? — so'radi mushukning og'zi. Biroq Alisa javob qaytarmadi. «Quloqlari bo'lmagandan keyin baribir so'zlarimni eshitolmaydi. Bir oz kutay-chi. Quloqlari paydo bo'lgach, u bilan gaplashaman», o'yladi u.

U bir oz kutdi. Mushukning quloqlari paydo bo'ldi. Alisaga endi uning boshi aniq ko'rinayotgandi. U flamingoni yerga qo'yib, o'yin haqida gapira ketdi. Alisa do'sti bilan suhbatlashayotganidan xursand edi.

— O'yin menga yoqmadi, — dedi Alisa, — Nazarimda, ular kriket o'ynashni bilishmaydi. Nuqul baqir-chaqir qilishib, bir-birlarini eshitishmaydi ham. Keyin koptoklar o'rniga



tipratikanlarni qo'yishgani ham yoqmadi, chunki ular yugurib ketaverishadi.

— Qirolicha-chi, u senga yoqdimi? — so'radi mushuk.

— U menga hech ham yoqmadi, — javob berdi Alisa. — U juda...

Uning gapi og'zida qoldi, chunki qirolichaning shu yerdaligini payqadi. Qirolicha uning ortida turardi. U diqqat bilan Alisaning gaplarini eshitayotgandi. Shunda Alisa gapini tugatdi:

— U juda yaxshi o'ynaydi. Qolgan barcha o'yinchilarga qaraganda eng yaxshisi u.

Qirolicha jilmayib nari ketdi. So'ng qirol Alisaning yoniga kelib, dedi:

— Kim bilandir gaplashayotganingni ko'rdim.

U havodagi mushukning boshiga qaradi.





— Bu mening do'stim — Cheshir mushugi, — javob qildi Alisa. — U bilan gaplashishni xohlaysizmi, hazrati oliylari?

— Menga uning basharasi yoqmadi, — dedi qirol, — lekin istasa qo'limni o'pishi mumkin.

— Uning qo'lini o'pishni xohlamayman, — dedi mushuk.

— Qo'pol ekan-san, — dedi qirol.

— Mening qirol ekanimni unutma. Menga bunday qarama.

— Mushuk ham qirolga qarashi mumkin, — dedi Alisa. — Men buni bir kitobda o'qigandim.

Shu payt qirolicha o'tib qoldi.

— Azizam, — qichqirdi qirol. — Iltimos, askarlaringga mushukni hibsga olishni buyur. Menga uning turqi yoqmadi.

Qirolicha to'xtamadi. U hatto «Nega?» yoki «Nima bo'ldi?», deb ham so'ramayoq «Boshini tanasidan judo qiling», deb buyurdi.

— Men askar topib mushukning boshini oldirishim kerak, — deb qirol askar qidirib ketdi.

«Shu yerda qolaymi yoki ortga qaytib o'yin tomosha qilaymi?» — o'ylardi Alisa. — Men ortimga qaytib o'yinni tugataman. Biroq koptoklar qani? Tipratikanim qayerda?»

Uning tipratikani boshqa tipratikan bilan urishayotgandi. «Juda soz, — o'yladi Alisa. — Men ularni bir-biriga uraman. Biroq flamingom qayerda qoldi?»

Uning flamingosi bog'ning narigi tomonida edi, u ham o'sha yoqqa yugurdi. U flamingoni tutib kriket maydoniga qaytib kelsa, tipratikanlar g'oyib bo'lishibdi. Shunda Alisani Cheshir mushugi bilan suhbatlashgisi keldi.

U qaytib kelib, bu yerda qirol, qirolicha, askarlar va bir qancha qartalarni ko'rdi. Ular nima haqidadir bahslashishayotgandi. Avvaliga Alisa hech narsani tushunmadi.

Askar shunday dedi:

— Mushukning tanasi yo'q. Tanasi bo'lmagani uchun uning boshini ololmayman.

Qirol:

— Mushukda bosh bor-ku. Shuning uchun ham uni kesishing kerak!





Qirolicha esa:

— Sen mushukning boshini olmasang men boshqa askarlarga aytib shu yerda hammaning kallasini oldiraman, — deb baqirdi.

Alisa hamma o'yinchilarning qo'rquvdan titrayotganini ko'rdi. Hamma Alisaga qarab burildi.

— Qani ayt-chi, qaysi birimiz haqmiz? — so'radi qirol, qirolicha va askar birvarakayiga.

Avvaliga Alisa nima deyishni bilmay qoldi. Ammo keyin shunday dedi:

— Bu mening mushugim emas. Siz bu haqida Gersoginyadan so'rang. Bu uning mushugi.

— Gersoginya qamoqda, — dedi qirolicha askarga. — Borib uni olib kel.

Askar darhol yugurib ketdi.

Ammo shu payt mushuk g'oyib bo'la boshladi. Avvaliga uning quloqlari, keyin ko'zlari va og'zi ko'zdan g'oyib bo'ldi. Oradan ko'p o'tmay askar gersoginya bilan qaytdi.

— Mushuk qani? — so'radi qirolicha. Qirol va askar uni qidira boshlashdi, lekin topa olishmadi. Shunda barcha o'yinchilar o'yinga qaytishdi.

GERSOGINYANING ALISA BILAN SUHBATI

Alisa gersoginya u tomonga kelayotganini payqadi.

— Seni yana ko'rganimdan xursandman, azizam, — dedi gersoginya.

Keyin u Alisaning qo'lidan ushlab, birga yurib ketdi. «U bugun juda muloyim, — o'yladi Alisa. — Uning jahli chiqmayotganidan xursandman. O'shanda oshxona qalampirli sho'rva hidi bilan to'lgani uchun u badjahl edi, tinmay aksirardi. Bu esa uning achchig'ini keltirgandi. Mening oshxonamda qalampir bo'lmaydi. Chunki qalampir odamlarni jahldor, qand va shirinliklar esa baxtli qiladi. Kattalar bolalarga ko'proq shirinlik va qand berishlari kerak. Shunda hamma baxtli bo'ladi».

Alisa shular haqida uzoq o'yga tolib, gersoginyani butkul unutdi. Qo'qqisidan u gersoginyaning ovozi eshitdi.

Gersoginya uning qulog'iga shunday deyayotgandi:

— Nimalar haqida o'ylayapsan? Nega men bilan gaplashmayapsan?

Gersoginya iyagini Alisaning yelkasiga qo'ydi. Alisaga bu yoqmadi, chunki gersoginyaning iyagi o'tkir edi. Ammo Alisa xushmuomala qiz bo'lgani uchun bu haqida churq etmadi.



— Azizam, — dedi gersoginya, — seni quchoqlab, o'pib olsam qarshi emasmisan.

— Unday qila ko'rmang, — dedi Alisa darhol. — Mening flamingom cho'qib oladi.

— Bunday qilmay qo'yaqolay, — dedi gersoginya. Keyin yana gapga tushdi: — Men senga sovg'a bermoqchiman. Senga gapirgan hamma gaplarimni tortiq qilaman.

— Juda ahmoqona sovg'a, — dedi Alisa o'z-o'ziga. — Yaxshiyamki tug'ilgan kuninga shunaqa sovg'alar berishmaydi.

— Azizam, — dedi gersoginya iyagini Alisaning yelkasiga qo'yib. — Yana xayol surib qolding!

— O'ylashga haqqim bor-ku, — dedi Alisa. Uning gersoginyadan jahli chiqayotgandi.

— Chun... — deb gap boshlagan gersoginya to'xtab qoldi. Alisa ro'parasida qirolicha turganini ko'rdi. Qirolicha qutirgan itdek gersoginyaga o'qrayardi.



— Ajoyib kun, hazrati oliyalari, — deb gap boshladi gersoginya.

— Hoziroq ko'zdan yo'qol, yo'qsa boshingdan ayrilasan!
— deb baqirdi qirolicha.

Gersoginya qo'rqqanidan oyog'ini qo'liga olib qochdi.

— O'yinni davom ettiramiz, — dedi qirolicha Alisaga.
Alisa esa e'tiroz bildirishga qo'rqdi.

Shunday qilib, Alisa qirolicha bilan ortga qaytdi. Ular kriket maydoniga kelishganda o'yinchilar dam olib o'tirishgandi. Ammo qirolichani ko'rishlari bilanoq o'rinlaridan sakrab turishdi. Qirolicha jahl bilan ularga dedi:

— Hoziroq o'yinni boshlaymiz yoki askarlarga buyurib boshingizni oldiraman.

O'yinchilar darhol o'yinni boshlab yuborishdi. Har daqiqa qirolicha: «Uning boshini tanasidan judo qil», deb baqirardi.

Askarlar o'yinchilarni tutib olib ketishardi, bir soat o'tmay kriket maydonida Alisa, qirol va qirolicha qoldi, xolos.

Qo'qqisdan ular jarchining ovozi eshitishdi:

— Sud boshlanyapti!

— Sud zaliga ketdik, — dedi qirolicha, — sudni boshlash vaqti yetdi.

— Kimning sudi o'zi? — so'radi Alisa.

Qirolicha dedi:

— Valet toppon mening pirogimni o'g'irlashga urindi .

Keyin qirol va qirolicha tez-tez yurib ketishdi. Alisa ham ularga ergashdi.



U PIROG O'G'RISIMI?

Qirol va qirolicha taxtda o'tirishardi. Har xil qush va hayvonlar taxt atrofini qurshab turishardi. Qartalar ham shu yerda edi.

Qo'liga kishan solingan valet toppon esa to'rtta askar qurshovida ularning oldida turardi.

Taxt yonida qo'lida uzun qog'ozni tutib turgan oq quyon ham bor edi. Sud zalining o'rtasidagi stol ustida idishga solingan pirog bor edi. Alisa ozgina ochiqqani uchun pirog uning ko'ziga juda chiroyli ko'rindi. «Bu sud tezroq tugab, hammamiz pirog'ni yesak bo'lardi», o'yladi u.

Alisaning sud zalida ilk marta bo'lishi edi. Ammo u sud haqida kitoblarda o'qigandi. U shunday o'yladi:



«Men bu yerda kimlar o'tirganini bilaman. Bu sudya, chunki uning boshida katta parik bor. O, sudya qirol ekan. Bu o'n ikkita qush va hayvonlar — sud maslahatchilari. Kamdan-kam qizlar bilishadi «sud maslahatchilari» so'zini».



O'n ikki sud maslahatchisi qog'ozga nimalarnidir yozishardi.
— Ular nimani yozishayapti? — so'radi Alisa. — Sud endi boshlandi-ku.

Alisaning yonida turgan bir qarta javob berdi:

— Ular o'zlarining ismlarini yozishmoqda. Sud tugaguncha o'z ismlarini esdan chiqarib qo'yishdan qo'rqishadi.

— Ahmoqlik! — dedi Alisa.



Shu payt u sud maslahatchilari qog'ozlariga «Ahmoqlik», deb yozishayotganini ko'rdi.

— Aybnomani o'qing! — dedi qirol.

Oq quyon o'qiy boshladi:
«Qirolicha toppon pirog pi-shirdi. Yoz kunlarida valet toppon uni o'g'irladi. Olib ketdi uzoqqa tezda».

— Hukmni o'qing! — dedi qirol sud maslahatchilariga.

— Bunga hali erta! — dedi oq quyon. — Avval guvohlarni chaqirish kerak.



Qo‘qqisdan Alisa yana kattara boshladi. Avvaliga u turib, bu yerdan uzoqroqqa ketmoqchi bo‘ldi. Keyin o‘ylab qoldi: «Yo‘q, men bu yerda qolib, sudni oxirigacha ko‘rishim kerak».

Birinci guvoh gersoginyaning oshpazi edi. Uning qo‘lida esa qalampir solingan idish bor edi. U eshikdan kirishi bilan oq zalda o‘tirganlar aksira boshladi.

— Bilganlaringni bizga ayt, — dedi qirol.

— Aytmayman! — dedi oshpaz.

Keyin Qirol unga savol berdi:

— Pirogga nima solasan?

— Qalampir, — javob berdi oshpaz.

— Shakar, — degan ovoz keldi orqadan.

— Kim sud zalida shovqin solyapti? — baqirdi qirolicha.

— Bu sichqon-ku! Sichqonni tutib kallasini oling!



Hamma sichqonni tutishga urinardi. Sud zalida shovqin uzoq vaqt tinmadi. Shovqin tinganda esa zalda sichqon ham, oshpaz ham yo'q edi.

— Hechqisi yo'q! — dedi qirol. — Keyingi guvohni chaqiring.

«Keyingi guvoh kim bo'larkan?», o'yladi Alisa.

Qo'qqisdan oq quyon qichqirdi:

— Alisa!

ALISA DARG'AZAB

— Shu yerdaman! — qichqirdi Alisa.

U hozir katta bo'lib qolganini ham unutgandi. U chaqqon sakrab turdi va stolda o'tirgan sud maslahatchilarini turtib yubordi. Bechora sud maslahatchilari yerga ag'nab, o'rinlaridan tura olishmasdi.

— O, meni kechiring! — qichqirdi Alisa.

— Sud ishini bu ahvolda davom ettira olmaydi, — dedi qirol jahl bilan. — Sen ularni terib, joy-joylariga o'tqazishing kerak.



Alisa ularni tera boshladi, ular joylariga qo'yilganda esa qirol Alisaga shunday dedi:

— Sen valet toppon qirolicha-ning pirogini qanday o'g'irlaganini bilasanmi?

— Men hech narsani bilmayman, — javob berdi Alisa.

— Hech narsani?

— Hech narsani, — dedi Alisa yana.

— Bu juda yomon, — dedi qirol va sud maslahatchilari tomon burildi. Sud maslahatchilari qog'ozlariga «juda yomon», deb yoza boshlashdi. Shu payt qirol o'rnidan turib qo'lidagi kitobdan o'qiy boshladi.

— 42-qonun: bo'yi bir mildan baland bo'lgan odamlar sud zalida qola olmaydi. Ular chiqib ketishlari kerak!

Hamma Alisaga qaradi.

— Mening bo'yim bir mil emas, — dedi Alisa.



– Yo‘q, undan ham balandroqsan, — dedi qiroL.
– Bo‘ying ikki mil! — deb chinqirdi qirolicha.
– Yo‘q, yolg‘on, men hech qayoqqa ketmayman!
– Boshini tanasidan judo qiling! — baqirdi qirolicha.
– Sizlardan kim ham qo‘rqardi! — deb baqirdi Alisa, —
Sizlar bor-yo‘g‘i qartasizlar!

Qo‘qqisdan qartalar havoga ko‘tarilib Alisaning boshi va yuziga urila boshladi. U ham jahl, ham qo‘rquv bilan qartalar-ni urib qaytarishga urinardi.



Shu payt opasining ovozi eshitildi:

— Uyg'on, Alisa! Nima bo'ldi?

Alisa ko'zlarini ochdi. U o'tloqda, daraxt tagida yotardi. Daraxtdan uning yuziga barglar tushgandi.

— Qanday g'aroyib tush! — dedi Alisa. U opasiga oq quyon, gersoginya va qirolicha, toppon haqida gapirib berdi. U tushida ko'rgan barcha g'aroyib narsalarni aytib berdi.

— Ha, juda g'aroyib tush ekan, azizam, — dedi opasi. — Endi uyga yugurdik, choy vaqti ham bo'ldi. Oyim bizni kutib qolgandir.





MUNDARIJA

QUYON UYASIDA	8
ALISA KICHRAYIB QOLDI	11
KO'Z YOSHLI KO'L.....	13
QANI MENING MUSHUGIM?	16
SICHQONNING DUMI QAYG'ULIMI?	18
ALISA OQ QUYONNING UYIDA.....	22
ALISA VA IPAK QURTI SUHBATI.....	27
«MEN ILON EMAS, QIZCHAMAN»	30
KULADIGAN MUSHUK	32
BEMA'NI CHOYXO'RLIK.....	39
QIROLICHANING BOG'I.....	47
QIROLICHANING KRIKET MAYDONI	53
GERSOGINYANING ALISA BILAN SUHBATI.....	59
U PIROG O'G'RISIMI?	62
ALISA DARG'AZAB	66

Adabiy-badiiy nashr

LYUIS KEROLL

ALISA MO'JIZALAR MAMLAKATIDA

Bolalar uchun ertak

Muharrir
Feruza QUVONOVA

Badiiy muharrir
Zilola TO'LAGANOVA

Sahifalovchi
Ma'murjon RAHMONOV

Texnik muharrir
Umidsbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.

Bosishga 17.09.2020 da ruxsat etildi.

Bichimi 70x100 1/16.

Bosma tabog'i 4,5 Shartli bosma tabog'i 7,56.

Garnitura «Academia». Ofset qog'ozi.

Adadi 10 000 (I zavod 2000) nusxa. Buyurtma № 106.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.

«Yoshlar matbuoti» MCHJda chop etildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi — (78) 147-00-14; (78) 129-09-72.

Marketing bo'limi — (98) 128-78-43;

faks — (71) 273-00-14.

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru




YANGI ASR AVLADI

www.book.uz
Onlayn kitob do'koni

ISBN 978-9943-20-761-5



9 789943 207615